



M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbachevna Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat yergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

Muassis: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA

“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”	6
Qirg‘zboyev Abdug‘affor Karimjonovich	
Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari	8
Ibragimova Gulsanam Ne‘matovna	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО	11
Хамдамова Махзуна Турсуновна	
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....	15
Asiljonova Shohsanam Doniyorovna	
Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar	18
Babayeva D. R.	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o‘zaro ta’siri	21
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....	25
Fayziyeva Mabudaxon Muhammadjonovna	
Неполные предложения как объект исследования	28
Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна	
Lider va uning fazilatlarini xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida	32
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi	
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o‘rni.....	36
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati	38
Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi	
Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari.....	41
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam	
Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....	46
Bafayev Muxiddin Muhammadovich	
Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....	50
Ризаев Азизжон Рахимджанович	
Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari	54
Marasulova Dono Nigmatullayevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....	59
Matchanov B. O.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	63
Muratova Munavvar O‘rol qizi	
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....	67
Нажмиддинова Гулноза Одилевна	
Bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....	70
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi	
Методика развития речи дошкольников.....	74
Очилова Хилола Шералиевна	
Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....	78
Elem Gökteş	
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника.....	87
Равшанова Наргиза Норбоевна	
Отешова Гульнур Кабуловна	



Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....	91
Хайдаров Р.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	95
Radjarova Zuxra Tirkashevna	
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей	100
Садикова Шоиста, Тохилова Шохсанам	
Maktabgacha ta'limda yuksalish	104
Shirbachevna Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar	106
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna	
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher	109
Tokhirova Shokhsanam	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	114
Xo'jamatova X. M.	
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarining o'rni	119
Yakubova Zilola Zikirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....	122
Mirkasimova Zilola Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash	124
Musratova Zilola Ulugbekovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati	128
Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdoni Shohasan qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari	132
Teshabayeva Zamira Sobirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati	135
Maxmudova Dilorom Axmadovna	
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari.....	137
Nabiyev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....	140
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....	143
Khalilova Dilnoza Furkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	146
Jumanova Fatima Uralovna	
Talabalarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....	149
Kamalova Gavhar Akbarovna	
Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....	152
Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna	
Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....	156
Ne'matova G. A.	
Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari	160
Norboyeva Dilafruz Jumakulovna	
Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....	163
Yuldasheva Dilnoza	
Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....	166
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Raxmatova Saodat Amrakulovna	
Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhni idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari	172
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	



Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....	176
Тургунов Абдурашид Абдуманнобович	
Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....	182
Asraxonova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi	
Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida	186
Jalilova Saboxat Xalilovna	
O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili	191
Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna	
Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli	196
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....	199
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	202
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	205
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	209
Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna	
Социально-педагогическая компетентность воспитателя ДОО.....	212
Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.	
Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....	215
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	



ZAMONAVIY O'ZBEK OILALARDA BOLALARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA QADRIYATLARNING O'RNI

Yakubova Zilola Zikirovna

Nizomiy nomidagi TDPU

“Maktabgacha talim metodikasi” kafedrasida o'qituvchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tarbiyaga yangicha yondashuviv va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni qalbi va ongiga singdirish; bolada tayanch fazilatlarini kafolatlari shakllantirishda uning psixologik qonuniyatlarini o'rganish, mazkur masalada oilaning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni hamda uning ijtimoiy asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, bolalar, pedagog-tarbiyachi, kitob, ota-onalar, pedagogik tashviqot, huquqiy madaniyat, milliy tarbiya, ijtimoiy vazifa.

Abstract: This article introduces a new approach to national education and strengthening moral values in the family into the basis of child-oriented education; in the guaranteed formation of the child's basic qualities, the study of his psychological patterns, the full disclosure of the socio-pedagogical capabilities of the family in this matter, raising scientific and methodological cooperation and unity between them to a higher level. The new level is discussed, as well as its social foundations.

Key words: family, children, teacher-educator, book, parents, pedagogical campaign, legal culture, national education, social task.

Аннотация: В данной размещается статья социальные основы в основу детско-ориентированного образования вводится новый подход к национальному воспитанию и укреплению морально-нравственных ценностей в семье; в гарантированном формировании основных качеств у ребенка, изучении его психологических закономерностей, полном раскрытии социально-педагогических возможностей семьи в этом деле, поднятии научно-методического сотрудничества и единства между ними на более высокий уровень.

Ключевые слова: семья, дети, педагог-воспитатель, книга, родители, педагогическая кампания, правовая культура, национальное образование, социальная задача.

KIRISH

Ma'lumki, tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi – yosh avlodga bilim, ko'nikma, ijtimoiy tajriba va axloq me'yorlarini shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra, yosh avlodga tarbiya berish maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy hayotda munosabatga kirishish me'yorlari va unga rioya etish talablari bo'yicha zaruriy shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi boy ma'naviy, madaniy qadriyatlarga ega. Ana shu qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali bobolarimiz, momolarimiz farzandlarini odob-axloqli etib voyaga yetkazishgan. Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan farzandlar aql-zakovat, mehr-oqibat, xalqparvarlik, jasurlik va mardlikda nom qozongan.

Xabaringiz bor, xalqimiz keyingi yillarda yevropacha turmush tarzini boshidan kechirmoqda. Bir necha ming yillik urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va milliy tarbiya usullari o'rniga G'arb madaniyati kirib keldi. Ular ba'zan tazyiq orqali ham singdirildi. Natijada xalqimiz tarixan shakllangan boy madaniy va ma'naviy merosidan, oilaviy tarbiya usullaridan mosuvo bo'lishgacha bordi. Nazarimizda, bunday holat, bugungi kunda o'zbek oilalaridagi tarbiya samarasiga qaysidir ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatib, oilaviy tarbiyaning ta'sirchanlik rolini pasaytirmoqda.

Natijada ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Oilalarda mehr-oqibat, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat kamayib bordi. Bu oxir oqibat atrofga, jamiyatga ham ta'sir eta boshladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, bugun jamoat joylarida yoshlarning o'zini tutishlari, muomala madaniyati va munosabatlari ba'zan

kishining g'ashini keltira boshladi. Tabiiyki, bunday salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha tadbirlarni ota-onalar va mahalla fuqarolar yig'ini maslahatchilari, pedagogik jamoalar, ota-onalar, vasiylik va homiylik tashkilotlari mutaxassislari, balog'atga yetmagan yoshlar bilan ishlash tuzilmalari va jamoatchilik tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikda olib borish talab etiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", – deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"^[1], degan ta'kid, yurtimizda yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e'tibor berilayotganining dalolatidir

METODLAR BO'LIMI

Milliy, ma'naviy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida hamda yuksak an'analar asosida olib borilishi kerak. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi bilan belgilanadi. Bu nazariy qoida bugungi kunda ijtimoiy tarbiyaga ham, oilaviy tarbiyaga ham bevosita taalluqlidir.

Ma'lumki, mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o'rta tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ular tarbiya jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzdagi bir maqsadga qaratilganini ta'minlaydi. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mavzusiga to'xtalganda, milliy axloq va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatini ochib bermoq zarur.

NATIJALAR BO'LIMI

Milliy axloq va tarbiyada ajdodlarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan hayot saboqlari va o'git, ko'rsatmalari jamuljamdir. Ana shu tufayli milliy, axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha yashab kelmoqda. Har qanday axloqiy fazilat u yoki bu yo'sinda insonning xatti-harakati tartibga solinishining ifodasi bo'lib, insonga bo'lgan hurmat-e'tibor, mehr-muhabbatni bildirar ekan, u umumbashariy mazmunni beradi. Zotan, har qanday shaxs odamzotning bir zarrasi ekan, unda butun bashariyatning mohiyati mujassam, shuning uchun ham u butun insoniyatga mansubdir. Shunga ko'ra, har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasida, uning barkamol shaxs bo'lishida umuminsoniy ma'no va mazmunni ko'rmog'i lozim. Bolaning axloqiy fazilatlarini umuminsoniy xarakter kasb etib, umumbashariy qadriyatga aylanishini anglab yetgan ota-ona farzandlari tarbiyasidagi mas'uliyatni chuqur his qilmoqlari maqsadga muvofiqdir.

Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mazkur masalalarni hal etish ancha murakkab va ziddiyatli bo'lib, unga vorisiylik va tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashish talab etiladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o'rta tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ular tarbiya jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzdagi bir maqsadga qaratilganini ta'minlaydi.

Milliy axloq va tarbiyada ajdodlarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan hayot saboqlari va o'git, ko'rsatmalari jamuljamdir. Ana shu tufayli milliy, axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha yashab kelmoqda.

MUHOKAMA BO'LIMI

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh sog'lomligining birligi kabi masalalarni o'rta tashlaydilar.

O'zbek oilasida bola tarbiyasi haqida gapirganda, keyingi avlodlarga boy meros qoldirgan O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlarini eslash muhimdir. Ular hozirgi kunlarimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, shaxsni kamol toptirish, oilada bolani tarbiyalashning yo'llari haqida qimmatli fikrlarni bayon etganlar.

Abu Ali Ibn Sino oilaviy tarbiyaning umumiy asoslarini bayon etishga harakat qilgan. "Agar oila tarbiya usullaridan to'g'ri foydalansa, o'z hayotida baxtga erishadi", – deb yozgan edi alloma.



Ibn Sino oilada bolani tarbiyalash – ota-onaning asosiy burchi deb hisoblagan, o‘z qusurlarini bartaraf qilgan kishigina boshqalarni tarbiyalashi mumkinligini ta’kidlagan. Ibn Sino bolani tarbiyalash omillarini tahlil qilib, ulardan eng to‘g‘risi – bola bilan birga bo‘lish va ijobiy misollardan foydalanib, alohida-alohida suhbatlashish, uning izzat-nafsiga tegmaslik, deb uqtirgan.

Ibn Sino tarbiyada otaning rolini ifodalashga katta ahamiyat bergan. Uning “Ro‘zg‘orshunoslik” kitobida “Otaning bolalarga munosabati”, degan bob bor. Unda olim jumladan: “Onalar o‘z tabiatlariga ko‘ra, yumshoq ko‘ngildirlar va o‘zlarining erkalashlari bilan bolaning xarakterini buzadilar”, – deydi. Ibn Sinoning fikricha, oilada asosiy tarbiyachi ota bo‘lishi, u maqsadga erishmoq uchun bolani ba‘zan jazolashi, ba‘zan rag‘batlantirishi, vaqti-vaqti bilan maqtashi, ba‘zan tanbeh berishi, vaqtida qo‘rqitib qo‘yishi lozim.

Oilada bola tarbiyasi to‘g‘risida Alisher Navoiyning ajoyib fikrlari ham bor. Unga ko‘ra, tarbiyada eng muhimi bolalarni sevish, “Bolaga, – degan edi ulug‘ shoir, – kichikligidan boshlab, yoshini hisobga olgan holda axloqiy tarbiya bermoq zarur”.

Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo‘llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko‘pgina jihatlari qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo‘yicha qarashlar tizimini tashkil etadi. Bu qarashlar o‘z davrlaridan anchagina ilgarilab ketib, bir necha asrdan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib, ma’naviy qadriyat sifatida bugungi kunda o‘z qiymatini yo‘qotmay kelmoqda. Ular ijtimoiy va oilaviy tarbiya birligi haqidagi masalani ijobiy hal qilishga uringanlar, buni hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi ham to‘la e’tirof etadi.

O‘zbek oilalarida keng tarqalgan halollik, to‘g‘rilik, birovlar haqiga xiyonat qilmaslik, xayr-ehson, saxovat va muruvvat, tejamkorlik va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kabi fazilatlar milliy va diniy qadriyatlar zamirida shakllangan va ular oilaviy tarbiya natijasida ota-onalardan bolalarga o‘tib, ularning ma’naviy dunyosini boyitgan.

Ko‘rinib turibdiki, kelajakda insoniyatning yashab qolish masalasi ko‘p jihatdan inson milliy-axloqiylik darajasiga bog‘liqdir. Shu bois, milliy-axloqiy tarbiya pag‘onadorligiga alohida e’tibor berish, uni yuksaltirish masalasi dolzarb ahamiyatga egadir.

Zero, muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o‘ta sharafli vazifadir ^[4].

Maqolani yakunlar ekanmiz, bolalar kelajak vorislarimizdir. Bu bizning sayyoramizning umuman kelajagi bor-yo‘qligi keyingi avlodlar qanday bo‘lishiga bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bolada milliy- axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalash barcha o‘qituvchilar intilishi mumkin bo‘lgan va yaxshi maqsaddir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV-qurultoyidagi nutqi. – 1-iyul, 2017-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-sonli Qonuni.
3. Egamberdiyeva N. M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T., 2009.
4. Sh. A.Sodiqova, Maktabgacha pedagogika. – T.: “Tafakkur sarchashmalari”, 2013.
5. Bahridin Umarov., Oilaviy tarbiya saboqlari. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – T.: Tasvir, 2019.
6. Z. Z.Yakubova (2023). National Values of Preschool Children Basically Forming Educational and Moral Qualities // European International Journal of Pedagogics, 3(01). – pp. 51–55.
7. Y. Z. Zikirovna (2023, February). Education of Preschool Children in the Spirit of National Traditions // In Conference Zone. – pp. 257–262.
8. Y. Z. Zikirovna Ma’naviy qadriyatlar – sog‘lom avlodni tarbiyalash vositasi sifatida //Science and innovation, 2023. – 208–210-betlar.
9. Sh. Sadikova (2022). Types and Content of Picture Activity in Preschool Educational Organizations // Science and Innovation. – pp. 760–764.
10. Sh.Sadikova, (2022). Pedagogical Innovation Cluster of Activity of Centers in Preschool Education // Science and Innovation. – pp. 1138–1143.



Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**